

XALQARO FUTBOL TRANSFER NIZOLARINI ARBITRAJDA HAL ETISH: FIFA VA CAS AMALIYOTI

Ismoilov Fahriddin

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistratura bosqichi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22057984>

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional futbol sohasida yuzaga keladigan xalqaro transfer nizolarini arbitraj tartibida hal etishning huquqiy mexanizmlari, xususan, FIFA Football Tribunalning Dispute Resolution Chamber (DRC) faoliyati hamda Sport arbitraj sudi (CAS) amaliyoti tahlil qilinadi. Futbol transferlarining xalqaro tus olishi natijasida futbolchilar, futbol klublari va milliy hamda xalqaro futbol tashkilotlari o'rtasida shartnomaviy majburiyatlarni bajarish, shartnomani muddatidan oldin bekor qilish, kompensatsiya, tayyorgarlik uchun kompensatsiya va solidarlik mexanizmi bilan bog'liq nizolar soni ortib bormoqda. Tadqiqotda FIFAning Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP) qoidalari, FIFA Football Tribunal yurisdiksiyasi va CASning apellyatsiya amaliyoti o'rganiladi.

Shuningdek, transfer nizolarida shartnomaviy barqarorlik, pacta sunt servanda, just cause, zararni kamaytirish majburiyati va kompensatsiyani aniqlash mezonlarining qo'llanilishi tahlil qilinadi. CASning so'nggi amaliyotlari asosida FIFA organlari qarorlarini arbitraj nazoratidan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Tadqiqot yakunida futbol transfer nizolarini hal etish tizimini takomillashtirish, futbolchi va klub manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda arbitraj amaliyotida huquqiy aniqlikni kuchaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: futbol transferi, xalqaro sport nizolari, FIFA Football Tribunal, Dispute Resolution Chamber, CAS, arbitraj, futbolchi, futbol klubi, shartnomaviy barqarorlik, kompensatsiya.

Аннотация. В статье исследуются правовые механизмы разрешения международных трансферных споров в профессиональном футболе, в частности деятельность Палаты по разрешению споров (Dispute Resolution Chamber — DRC) Футбольного трибунала FIFA и практика Спортивного арбитражного суда (CAS). Международный характер футбольных трансферов обуславливает возникновение многочисленных споров между игроками, клубами и национальными и международными футбольными организациями, связанных с исполнением договорных обязательств, досрочным расторжением контрактов, выплатой компенсации, компенсацией за подготовку игроков и механизмом солидарности. В исследовании анализируются положения Регламента FIFA по статусу и переходам игроков (RSTP), юрисдикция Футбольного трибунала FIFA и апелляционная практика CAS. Особое внимание уделяется принципам стабильности контрактов, pacta sunt servanda, наличию just cause, обязанности по минимизации убытков и критериям определения компенсации. На основе современной практики CAS раскрываются особенности арбитражного контроля решений органов FIFA. В заключении предлагаются рекомендации по совершенствованию системы разрешения трансферных споров, обеспечению баланса интересов игроков и клубов и повышению правовой определенности в международном футбольном арбитраже.

Ключевые слова: футбольный трансфер, международные спортивные споры, Футбольный трибунал FIFA, Палата по разрешению споров, CAS, арбитраж,

футболист, футбольный клуб, стабильность контрактов, компенсация, компенсация за подготовку, механизм солидарности.

Abstract. This article examines the legal mechanisms for resolving international transfer disputes in professional football, with particular focus on the activities of the FIFA Football Tribunal's Dispute Resolution Chamber (DRC) and the jurisprudence of the Court of Arbitration for Sport (CAS). The internationalisation of football transfers has resulted in an increasing number of disputes between players, clubs and national or international football organisations concerning contractual obligations, premature termination of employment contracts, compensation, training compensation and solidarity mechanism. The study analyses the FIFA Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP), the jurisdiction of the FIFA Football Tribunal and the appellate practice of CAS. Particular attention is given to contractual stability, the principle of pacta sunt servanda, just cause for termination, the duty to mitigate damages and the criteria for determining compensation. Recent CAS jurisprudence is examined in order to identify the specific features of arbitral review of FIFA decisions. The article concludes by proposing legal and practical measures aimed at improving the system for resolving international football transfer disputes, maintaining an appropriate balance between the interests of players and clubs, and strengthening legal certainty in international football arbitration.

Keywords: football transfer, international sports disputes, FIFA Football Tribunal, Dispute Resolution Chamber, CAS, arbitration, football player, football club, contractual stability, compensation, training compensation, solidarity mechanism.

KIRISH

Professional futbol zamonaviy sport industriyasining eng yirik va iqtisodiy jihatdan rivojlangan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Futbolchilarning xalqaro transferlari natijasida turli davlatlarning futbol klublari, futbolchilar, agentlar va sport tashkilotlari o'rtasida murakkab shartnomaviy va institutsional munosabatlar yuzaga keladi.

Futbol transferining oddiy sport hodisasidan xalqaro huquqiy munosabatga aylanishiga bir nechta omillar sabab bo'lmoqda. Xususan, futbolchining bir davlatdagi klubdan boshqa davlatdagi klubga o'tishi, transfer qiymati, shartnoma muddati, ish haqi, bonuslar, kompensatsiya, tayyorgarlik uchun kompensatsiya va solidarlik mexanizmi kabi masalalar bir vaqtning o'zida bir nechta huquqiy tizimlar bilan bog'lanadi.¹

Bunday nizolarni hal etishda FIFA tomonidan shakllantirilgan institutsional mexanizm alohida ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda FIFA Football Tribunal uchta palatadan — Dispute Resolution Chamber, Players' Status Chamber va Agents Chamberdan tashkil topgan. DRC xalqaro o'lchamdagi klub va futbolchi o'rtasidagi mehnat nizolari, shuningdek ayrim training compensation va solidarlik mexanizmi nizolarini ko'rib chiqadi.²

FIFAning amaldagi huquqiy bazasida futbolchilarning maqomi va transferlari bilan bog'liq asosiy hujjat Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP) hisoblanadi. FIFA 2025-yilgi Legal Handbook nashrida RSTPning yangilangan versiyasini ham o'z ichiga olgan.

FIFA organlari tomonidan chiqarilgan qarorlar ustidan tegishli hollarda CASga murojaat qilish imkoniyati xalqaro futbol nizolarining ikkinchi muhim bosqichini tashkil qiladi.

¹ Nafziger J.A.R. *International Sports Law*. – Transnational Publishers.

² FIFA. *Football Tribunal — DRC, Players' Status Chamber va Agents Chamber*

Natijada FIFA → CAS modeli xalqaro futbol transfer nizolarini hal etishning o'ziga xos ikki bosqichli mexanizmini yuzaga keltiradi.

XALQARO FUTBOL TRANSFER NIZOLARINING HUQUQIY TABIATI

Futbol transfer nizolari o'zining huquqiy tabiati jihatidan bir xil emas. Ularni bir nechta asosiy guruhlariga ajratish mumkin.

Birinchi guruh — futbolchi va klub o'rtasidagi shartnomaviy nizolar.

Bunda asosiy masalalar:

- ish haqining to'lanmasligi;
- shartnomani muddatidan oldin bekor qilish;
- just cause mavjudligi;
- kompensatsiya;
- shartnoma muddati;
- bonuslar;
- transferdan keyingi majburiyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi guruh — klublar o'rtasidagi transfer nizolari.

Masalan, transfer to'lovlarini amalga oshirmaslik, transfer shartnomasidagi majburiyatlarni buzish yoki futbolchi bilan bog'liq moliyaviy majburiyatlarning bajarilmasligi.

Uchinchi guruh — sportchini tayyorlash uchun kompensatsiya va solidarlik mexanizmi nizolari.

Sportchini tayyorlash uchun kompensatsiya futbolchining yoshlar futbolida tayyorlanishiga sarflangan xarajatlarni qoplash mexanizmi bo'lib, FIFA tizimida futbolchi 12–21 yosh oralig'ida tayyorlangan klublarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Solidarlik mexanizmi esa futbolchining xalqaro transferidan kelib chiqadigan mablag'larning uni tayyorlagan klublarga taqsimlanishini nazarda tutadi. CAS Bulletinida ushbu mexanizmlarning transfer tizimidagi o'rni alohida tahlil qilingan.³

Shunday qilib, xalqaro futbol transfer nizolari oddiy fuqarolik-huquqiy nizodan farqli ravishda sport reglamentlari, shartnoma, xalqaro xususiy huquq va arbitraj qoidolari kesishmasida yuzaga keladi.

FIFA FOOTBALL TRIBUNALNING TRANSFER NIZOLARINI HAL ETISHDAGI O'RNI

FIFA Football Tribunal xalqaro futbol nizolarini hal qilishning asosiy institutsional mexanizmlaridan biridir.

FIFA Statutining 54-moddasiga muvofiq, Football Tribunal futbol bilan bog'liq nizolar va ayrim tartibga soluvchi masalalar bo'yicha qarorlar qabul qiladi. Uning faoliyati FIFA tomonidan qabul qilingan protsessual qoidalar va tegishli reglamentlar, jumladan RSTP bilan tartibga solinadi.⁴

DRCning alohida ahamiyati shundaki, u klub va futbolchi o'rtasidagi xalqaro o'lchamga ega mehnat nizolarini ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, DRC:

- contractual stability;
- training compensation;
- solidarlik mexanizmi bilan bog'liq nizolarni ham ko'rib chiqadi.

³ Court of Arbitration for Sport. *CAS Bulletin 2025-2: The FIFA Clearing House Under the Scrutiny of CAS Panels.*

⁴ FIFA. *Football Tribunal — Dispute Resolution Chamber, Players' Status Chamber and Agents Chamber: Jurisdiction and Functions.* FIFA, Inside FIFA.

FIFA tizimining muhim xususiyati — DRC tarkibida futbolchilar va klublarning teng vakilligi hamda mustaqil rais mavjudligidir. Bu model nizolarni ko'rib chiqishda taraflarning manfaatlarini o'rtasida institutsional muvozanat yaratishga qaratilgan.

FIFA tomonidan DRC qarorlarining ma'lum qismi ochiq e'lon qilinadi. Maxfiy ma'lumot mavjud bo'lsa, qaror anonimlashtirilgan yoki qisqartirilgan shaklda e'lon qilinishi mumkin. Bu amaliyot xalqaro futbol huquqida huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.⁵

Xalqaro futbol transfer nizolaridagi asosiy prinsip — *contractual stability*, ya'ni shartnomaviy barqarorlik prinsipidir.⁶

Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, futbolchi va klub o'rtasida qonuniy ravishda tuzilgan shartnoma taraflar tomonidan bajarilishi lozim.

Bu prinsip umumiy fuqarolik va shartnoma huquqidagi *pacta sunt servanda* prinsipiga yaqin hisoblanadi.

Shartnomaviy barqarorlikning asosiy maqsadi ikki xil manfaatni muvozanatlashdan iborat:

bir tomondan — klubning futbolchiga qilgan investitsiyasini himoya qilish;

ikkinchi tomondan — futbolchining kasbiy faoliyatini erkin davom ettirish huquqini ta'minlash.⁷

Agar futbolchi shartnomani istalgan vaqtda asossiz ravishda bekor qila olsa, klubning iqtisodiy manfaatlarini jiddiy zarar ko'rishi mumkin.

Aksincha, klub futbolchini shartnoma muddati tugaguniga qadar har qanday sharoitda ushlab turishga haqli deb hisoblash ham futbolchining mehnat va kasbiy huquqlariga zid bo'lishi mumkin.

Shu sababli FIFA va CAS amaliyotida *contractual stability* va *just cause* masalalari markaziy o'rin tutadi.

Futbol transfer nizolarining katta qismi shartnomaning muddatidan oldin bekor qilinishi bilan bog'liq.

Bunda asosiy savol: Taraf shartnomani bir tomonlama bekor qilish uchun yetarli huquqiy asosga ega bo'lganmi? Agar klub futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini asossiz ravishda bekor qilsa, futbolchi kompensatsiya talab qilishi mumkin. Xuddi shuningdek, futbolchi ham shartnomani asosli sabab bo'lmagan holda tark etsa, klubga nisbatan javobgarlik masalasi yuzaga kelishi mumkin.

CASning amaliyotida bunday nizolarni hal qilishda shartnomaning o'zi, taraflarning xatti-harakatlari, buzilishning jiddiyligi va mavjud huquqiy asoslar kompleks baholanadi.

Masalan, CAS 2024/A/10400 Aris Limassol FC v. Abdeljalil Medioub ishida CAS FIFA DRCning xalqaro o'lchamdagi mehnat nizosi bo'yicha yurisdiksiyasini tasdiqlagan. Ishda dispute resolution chamber tizimining FIFA talablariga javob berishi masalasi ham ko'rib chiqilgan. CAS paneli tegishli milliy organ futbolchilar va klublarning teng vakilligini ta'minlamaganligi sababli u FIFA DRCning default yurisdiksiyasini almashtira olmaydi, degan xulosaga kelgan.⁸

⁵ <https://tickets.fifa.com/legal/football-tribunal/dispute-resolution-chamber-decisions>

⁶ FIFA. *Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP)*.

⁷ Kaufmann-Kohler, G., Rigozzi, A. *International Arbitration: Law and Practice in Switzerland*.

⁸ Court of Arbitration for Sport. CAS 2024/A/10400, Aris Limassol FC v. Abdeljalil Medioub.

Mazkur ishning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, xalqaro futbol nizolarida qaysi organ vakolatli ekanligi masalasi nizoning mohiyatini ko'rib chiqishdan oldingi asosiy protsessual masalalardan biri hisoblanadi.

Transfer nizolarining eng murakkab jihatlaridan biri — shartnoma buzilgan taqdirda kompensatsiya miqdorini aniqlashdir.

Kompensatsiya aniqlanganda quyidagi holatlar ahamiyat kasb etishi mumkin:

- shartnomaning qolgan muddati;
- futbolchining ish haqi;
- bonuslar;
- yangi klub bilan tuzilgan shartnoma;
- futbolchining yangi daromadlari;
- shartnomadagi kompensatsiya bandi;
- taraflarning aybi;
- zararining haqiqiy miqdori.

Bu borada zararni kamaytirish majburiyati — duty to mitigate damages muhim prinsip hisoblanadi. CASning so'nggi ishlaridan biri — CAS 2024/A/10646 ishida FIFA DRC futbolchi bilan tuzilgan shartnomaning klub tomonidan bekor qilinishini baholagan va kompensatsiyani aniqlashda futbolchining yangi shartnoma orqali olgan daromadlarini ham hisobga olgan. CAS hujjatida DRC kompensatsiyani hisoblashda shartnoma bo'yicha qolgan qiymat va futbolchining yangi shartnomasi orqali kamaygan zararini hisobga olgani ko'rsatilgan⁹ Bu yondashuv kompensatsiyaning jazolovchi emas, avvalo zararni qoplashga qaratilgan huquqiy mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Xalqaro futbol transfer nizolarida FIFA va CAS o'rtasidagi munosabatni quyidagi model orqali ifodalash mumkin: Nizo yuzaga keladi va undan keyin FIFA Football Tribunal / DRC o'tadi. Shundan keyin FIFA qarori chiqaradi. Tegishli hollarda CASga apellyatsiya beriladi agar masala yanada ko'rib chiqiladi va CASning yakuniy arbitraj qarori qabul qilinadi.

Bu tizim futbol nizolarini birinchi bosqichda sport sohasiga ixtisoslashgan organda ko'rib chiqish, ikkinchi bosqichda esa mustaqil xalqaro arbitraj nazoratidan o'tkazish imkonini beradi.

Bunday tizimning afzalligi shundaki, futbol nizolarini davlat sudlarining umumiy va ko'pincha uzoq davom etadigan protseduralaridan ajratib, sportning maxsus ehtiyojlariga moslashtirishdir.

Biroq FIFA organlari va CAS o'rtasidagi vakolatlar nisbatida huquqiy aniqlik masalasi doimo muhim bo'lib qoladi.¹⁰

Ayniqsa milliy dispute resolution chamber mavjud bo'lgan davlatlarda uning FIFA tomonidan tan olinishi va FIFA DRC yurisdiksiyasini almashtira olishi masalasi dolzarbdir.

Aris Limassol FC v. Medioub ishida aynan shu masala amaliy jihatdan ko'rsatib berilgan.

Futbol transfer tizimining yana bir muhim elementi — futbolchi tarbiyasiga hissa qo'shgan klublarning manfaatlarini himoya qilishdir.

Training compensation mexanizmi yosh futbolchini tayyorlagan klublarga tegishli kompensatsiyani olish imkonini beradi.

CASning 2025-yilgi Bulletinida FIFA Clearing House va CAS amaliyotida training compensation hamda solidarlik mexanizmi masalalari alohida o'rganilgan.¹¹

⁹ Kaufmann-Kohler G., Rigozzi A. International Arbitration: Law and Practice in Switzerland.

¹⁰ Ходжимуротов Ш. CAS как независимый арбитражный суд // Перспективы развития международного коммерческого арбитража в Узбекистане. – 2022.

Bu mexanizmlar ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi:

1. Yosh futbolchilarni tayyorlashga investitsiya qiluvchi klublarni rag'batlantirish;
2. Futbol transferlari natijasida hosil bo'ladigan iqtisodiy manfaatlarining adolatli taqsimlanishini ta'minlash.

FIFA Clearing House tizimi esa xalqaro transferlar va futbolchining oldingi klublariga tegishli training rewardsni aniqlash jarayonida elektron ma'lumotlar va transfer tizimlari bilan integratsiyalashgan mexanizmlardan foydalanadi.

Shu sababli kelajakda transfer nizolarining bir qismi faqat shartnoma buzilishi emas, balki transferdan kelib chiqadigan moliyaviy huquqlarni taqsimlash bilan ham bog'liq bo'lib qoladi.

Tadqiqot natijasida xalqaro futbol transfer nizolarida quyidagi asosiy muammolarni ajratish mumkin.

Birinci muammo — yurisdiksiya masalasidir.

FIFA DRC, milliy dispute resolution chamber va CAS o'rtasidagi vakolatlar chegarasi ayrim holatlarda murakkablashadi.¹² Shu sababli milliy nizolarni hal qilish organining FIFA tomonidan tan olinishi va uning mustaqilligi muhim ahamiyatga ega. FIFA 2024-yildan milliy dispute resolution chambers uchun alohida recognition frameworkni ishlab chiqdi. Ushbu tizim milliy organlarning yurisdiksiyasi, tarkibi, protsessual talablari va FIFA tomonidan tan olinishi uchun zarur standartlarni belgilashga qaratilgan. Ikkinchi muammo esa futbolchi va klub manfaatlarini o'rtasidagi muvozanat. Klub futbolchiga investitsiya qiladi, futbolchi esa o'z mehnatini va professional faoliyatini davom ettirish huquqiga ega.

Shuning uchun arbitraj qarorida bir tomonning manfaatini mutlaq ustun qo'yish emas, shartnomaviy barqarorlik va mehnat huquqi o'rtasidagi muvozanat ta'minlanishi kerak.

Uchinchi muammo — kompensatsiyani hisoblash.

Futbolchining yangi shartnoma tuzishi, yangi ish haqi, bonuslar va boshqa daromadlari kompensatsiya miqdoriga ta'sir qilishi mumkin. Bu borada yagona va oldindan aniq prognoz qilinadigan mezonlarning mavjudligi huquqiy aniqlikni oshiradi. To'rtinchi muammo — transfer tizimining murakkablashuvi.

Zamonaviy futbol transferlari faqat klub va futbolchi o'rtasidagi munosabat emas.

Agentlar, vositachilar, FIFA Clearing House, milliy federatsiyalar va boshqa subyektlar ham jarayonga jalb qilinmoqda.

Bu esa nizolar subyektlari va huquqiy munosabatlarining yanada murakkablashishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston futbolining xalqaro futbol tizimiga integratsiyasi kuchayib borayotganligi sababli xalqaro transfer nizolarini hal qilish mexanizmlarini chuqur o'rganish amaliy ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun quyidagi yo'nalishlar muhim deb hisoblaymiz. Birinchidan, futbol klublarida xalqaro transfer shartnomalarini tuzish bo'yicha professional yuridik xizmatni kuchaytirish zarur. Ikkinchidan, futbolchilar va klublarga FIFA RSTP hamda FIFA Football Tribunal mexanizmlari bo'yicha huquqiy bilim berish lozim.¹³ Uchinchidan, milliy sport nizolarini hal qilish organlarining mustaqilligi va protsessual tengligini ta'minlash muhim.

¹¹ FIFA. *Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP); Court of Arbitration for Sport. CAS Bulletin 2025-2: The FIFA Clearing House Under the Scrutiny of CAS Panels.*

¹² Ходжимуротов Ш. *CAS как независимый арбитражный суд; FIFA. National Dispute Resolution Chamber Recognition Principles.*

¹³] FIFA. *Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP); FIFA. Football Tribunal — Dispute Resolution Chamber, Players' Status Chamber and Agents Chamber.*

To'rtinchidan, FIFA tomonidan tan olinadigan milliy dispute resolution chamber mexanizmlarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiq. Beshinchidan, xalqaro transfer nizolarida ishtirok etuvchi O'zbekiston futbol klublari uchun CAS amaliyoti bo'yicha maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.¹⁴

XULOSA

Xalqaro futbol transferlari zamonaviy sport huquqining eng murakkab va dinamik yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Transfer munosabatlarining xalqaro xarakterga ega bo'lishi futbolchilar, klublar va sport tashkilotlari o'rtasidagi nizolarni yagona va ixtisoslashgan mexanizm asosida hal etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijasida FIFA Football Tribunal, xususan DRC xalqaro futbol transfer nizolarini birinchi bosqichda hal etishda muhim institutsional mexanizm ekanligi aniqlandi. DRC xalqaro o'lchamdagi klub-futbolchi mehnat nizolari, training compensation va solidarlik mexanizmi bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqadi.

CAS esa FIFA qarorlari ustidan arbitraj nazoratini amalga oshiruvchi muhim xalqaro institut sifatida namoyon bo'ladi.¹⁵ CAS amaliyoti shuni ko'rsatadiki, futbol transfer nizolarini hal qilishda faqat shartnoma matni emas, balki shartnomaviy barqarorlik, just cause, pacta sunt servanda, zararni kamaytirish majburiyati va kompensatsiyaning mutanosibliigi kabi prinsiplar ham muhim ahamiyatga ega.¹⁶ Aris Limassol FC v. Abdeljalil Medioub ishi FIFA DRC va milliy nizolarni hal qilish organlari o'rtasidagi yurisdiksiya masalasining amaliy ahamiyatini ko'rsatadi. CAS 2024/A/10646 esa kompensatsiyani hisoblashda futbolchining keyingi daromadlarini va zararni kamaytirish majburiyatini hisobga olish zarurligini ko'rsatadigan zamonaviy amaliyotlardan biridir.¹⁷

Shu asosda xalqaro futbol transfer nizolarini hal etish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- FIFA va milliy dispute resolution chambers o'rtasidagi yurisdiksiya chegaralarini yanada aniq belgilash;
- Futbolchi va klublarning protsessual tengligini kuchaytirish;
- Kompensatsiyani hisoblashning prognoz qilinadigan mezonlarini rivojlantirish;
- Transfer nizolarida CAS amaliyotidan foydalanish bo'yicha huquqiy qo'llanmalarni kengaytirish;
- O'zbekistonda xalqaro futbol transfer nizolari bo'yicha ixtisoslashgan yuridik kompetensiyani rivojlantirish.

Umuman olganda, FIFA Football Tribunal va CASning o'zaro bog'liq faoliyati xalqaro futbol transfer nizolarini hal etishning ixtisoslashgan va nisbatan samarali mexanizmini shakllantirgan. Ushbu tizimning keyingi rivojlanishi esa, avvalo, futbolchi huquqlari, klub manfaatlari, shartnomaviy barqarorlik va transfer bozorining iqtisodiy manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash bilan bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. **FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP).** FIFA Legal.

¹⁴ FIFA. *National Dispute Resolution Chamber Recognition Principles*.

¹⁵ Court of Arbitration for Sport. CAS 2024/A/10400, *Aris Limassol FC v. Abdeljalil Medioub*; Court of Arbitration for Sport. CAS 2024/A/10646, *Club A. v. B*.

¹⁶ FIFA. *Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP)*; Nafziger J.A.R. *International Sports Law*; Kaufmann-Kohler G., Rigozzi A. *International Arbitration: Law and Practice in Switzerland*.

¹⁷ Court of Arbitration for Sport. CAS 2024/A/10646, *Club A. v. B*

2. **FIFA.** *Football Tribunal: Dispute Resolution Chamber, Players' Status Chamber and Agents Chamber.* Inside FIFA.
3. **FIFA.** *National Dispute Resolution Chamber Recognition Principles.* Inside FIFA.
4. **Court of Arbitration for Sport.** CAS 2024/A/10400, *Aris Limassol FC v. Abdeljalil Medioub.*
5. **Court of Arbitration for Sport.** CAS 2024/A/10646, *Club A. v. B.*
6. **Court of Arbitration for Sport.** CAS Bulletin 2025-2: *The FIFA Clearing House Under the Scrutiny of CAS Panels.*
7. **Nafziger, J.A.R.** *International Sports Law.* 2nd ed. – Transnational Publishers, 2011.
8. **Foster, K.** *Lex Sportiva: Transnational Law in Action.*
9. **Kaufmann-Kohler, G., Rigozzi, A.** *International Arbitration: Law and Practice in Switzerland.*
10. **McLaren, R.H.** *Sports Law in the United States and Internationally.*
11. **Salomov, J.B., Valeev, A.M.** Sport arbitraji O'zbekistonda rivojlanib borayotgan yangi huquqiy fenomen sifatida // *Yuridik fanlar axborotnomasi.* – 2022. – №4. – B. 142–148. Bu maqola O'zbekistonda sport arbitrajining rivojlanishi va huquqiy muammolariga bevosita bag'ishlangan.
12. **Понкин, И.В., Понкина, А.И.** О корреляции *lex sportiva* и спортивного права // *Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Юридические науки.* – 2012. – №3. – С. 109–118.
13. **O'zbekiston Respublikasining “Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida”gi Qonuni.** O'RQ-674-son, 16.02.2021.
14. **O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi Qonuni.** Yangi tahrir, O'RQ-1123-son, 24.03.2026.